

JISMONIY JARAYON FE'LLARI (ABDULLA QODIRIY ROMANLARI ASOSIDA)

Ergasheva Feruzaxon Abdusalim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti

R.Rasulov

Ilmiy rahbar: f.f.d.proff.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352434>

Annotatsiya. Ushbu maqola jismoniy jarayon fe'llari, uning ma'nosi, haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: fe'l, fe'lning ma'no guruhlari, jismoniy jarayon fe'llari.

ГЛАГОЛЫ ФИЗИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА (ПО РОМАНАМ АБДУЛЛЫ КАДИРИ)

Аннотация. В этой статье представлена информация о глаголах физического процесса, их значении.

Ключевые слова: глагол, смысловые группы глаголов, глаголы физического процесса.

PHYSICAL PROCESS VERBS (BASED ON ABDULLAH QADIRI'S NOVELS)

Abstract. This article provides information about the verbs of the physical process, their meaning.

Keywords: verb, semantic groups of verbs, verbs of physical process.

KIRISH

Fe'l arabcha so'z bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalaydi. Masalan: tortmoq, o'qimoq, qizarmoq, ozmoq. Fe'l nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlardir. Masalan: Bola qizardi (nima qildi?) fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi subyektini sanaladi. Ma'lum bo'ldiki fe'ldan ifodalangan subyektiga ega bo'ladi

Fe'lning gramatik ma'nolarini o'rganish bilan bir qatorda ularni ma'noviy guruhlariga ajratish, o'zaro qiyoslash, farqlash, ularga xos xususiyatlarni aniqlash muhimdir. Tilshunoslikda fe'lning ma'noviy guruhlari to'rtta katta guruhlariga ajratib o'rganiladi. 1. Harakat fe'llari. *Qimirladi, siljidi, turdi, yurdi, chopdi.* 2. Natijali faoliyat fe'llari. *Tuzmoq, yasamoq, bunyod etmoq, buzmoq.* 3. Nutq fe'llari. *Shivirlamoq, aytmog, demoq, so'zlamog.* 4. Holat fe'llari. *Uxlamoq, qizarmoq, oqarmoq, sezmoq, anglamoq*

Ba'zi manbalarda fe'lning leksik-semantik turlari quyidagi guruhlariga bo'linadi.

Jismoniy jarayon fe'llari. "Jismoniy" jarayon fe'llari shu fe'llar semantik maydonining eng katta qismini tashkil qiladi. Ular inson va hayvon organizmining (a'zolarining) jismoniy holatini ifodalaydi. Bu fe'llar ma'nosida jonli mavjudotlar organizmida, ularning muayyan a'zolarida yuzaga kelgan yaqqol jismoniy o'zgarishlar aks etadi. Bu "jismoniy" o'zgarishlar jonli mavjudotlarda:

1. Jismoniy o'zgarish natijasida: xurpaymoq, qutirmoq, qonsizlanmoq, so'lg'inlashmoq, charchamoq...

2. Jismoniy jarayon holatida: xansiramoq, suzilmoq, g'ilaylashmoq, jimirlamoq... yuz beradi. " Jismoniy jarayon" fe'llari quyidagilar: uxlamq, charchamoq, shilpiqlanmoq, toliqmoq, ogrimoq, sulaymoq, oriqlamoq, ozmoq, isitmalamoq, bezraymoq, yeg'lamsiramoq, mizgimoq, sovqotmoq, namiqmoq, kasallanmoq, semirmoq, yog'onlashmoq, to'lishmoq, majolsizlanmoq, chiniqmoq, elimoq, xorimoq, darmonsizlash (yokilan) moq, seraymoq, shishinqiramoq, choqqaymoq, shumshaymoq, (qovog'ini solmoq, to'rsaymoq), tolmoq, zirqiramoq, shifolanmoq, xolsizlanmoq, qoraymoq (qora tusga kirmoq).

Demak jismoniy jarayon fe'llari jonli organizmlar a'zolarida yuz beradigan harakatlarning bajarishi ,yuz berishi bilan o'ziga xos bo'lib ,ajralib turadi.

Biz Abdulla Qodiriy romanlarida quydagi jismoniy jarayon fe'llarini aniqladik.

Bular:qonsizlanmoq,bo'zarmoq,qizarmoq,ozmoq,ozg'inlanmoq,etini yo'qotmoq,ko'karmoq,kulimsiramoq,kulimsiragansimon,kulimsimoq,kulmoq,iljaymoq,kulib boqmoq, og'rismoq,dardmand,tobi qochmoq,ivishmoq ,muzlamoq isimoq.

Jismoniy o'zgarish natijasida:

1 .Anvarda **qonsizlanish** va kiprik ostida harakat ko'rildi.(Mehrobdan chayon)2. Qovoq ostlari **ko'kargan** yonig'a kelgan Otabekka ham qaramoqqa majolsiz edi. 3. Kumush honimning **ozg'ani** sog'inchniki. 4. Kumushbibi yillab yotguchi og'riqlardek sarg'ayib **ozg'an**. 5. Burung'i to'lalig'i ketib **ozg'inlangan** va lekin bu ozg'inlik uning husniga kamchilik bermay bilaks yuqorilatgan. 6.Shaxidbek zakotchimiz ham shu bir necha kunning orasida bir chorak **etini yo'qotayozdi**. (O'tkan kunlar)

Jismoniy jarayon holatida :

1.Mulla Abdurahmon Safar bo'zchini mehmonxonaning daxliziga kirishdayoq ko'rib qoldi va sariq tusi **bo'zarib ketkan** xolda ichkariga kirdi. (Mehrobdan chayon) 2. Kumushbibi yig'idan **qizarg'an** katta ochib so'radi. (O'tkan kunlar) 3.Otabek **qip -qizil qizarib** gunohkorlardek yerg'a qarag'an edi. 4.Saodat **qizarib -bo'zarib** chetga burilib olg'an edi. 5.Odatdagidan ham **rangi o'chgan** Abdurahmon bularning imo-ishoratiga ishtrok etmadi.

Ushbu misollarda jismoniy jarayon fe'llari "jonli", "harakatchan" ko'rinishga ega.Bu jarayon asosan insonlarning muayyan a'zosi-tana,yuz a'zosi bilan bog'liq

Jismoniy jarayon fe'llariga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quydagicha izoh beriladi.

"Qonsizlanmoq" - qoni , rangi qochmoq, rangi o'chmoq , oqarmoq.Misol:Safar bo'zchining bu so'zidan imomning qonsiz rangi yana qonsizlangan,olamunchiq ko'zi allanechukholatga kirgan edi.(Abdulla Qodiriy.Mehrobdan chayon)

"Qizarmoq"- nojo'ya, nomaqbul xatti-xarakati, aybi,qilmishi kamchiligi va shu kabilar uchun kimsa oldida xijolat tortmoq,izza holatga tushmoq. Misol: Modomiki mendan gunoh sodir bo'lmadi,tershirsalar haqiqat oldida o'zlari qizarib qoladilar

,shunday emasmi?(Oybek .Nur qidirib)

"Bo'zarmoq " - rangi quv o'chib ,oqarib ketmoq.Misol:Sidiqjonning rangi bo'zarib ketdi.(Abdulla Qahhor.Qo'shchinor chiroqlari)

"Ko'karmoq" – qattiq zarb , sovuq yoki boshqa biror sabab ta'sirida ko'k-qoramtir tusga kirmoq (badan , yuz haqida).Misol: Bolaning qo'llari sovuqdan ko'karib ketibdi.Ko'karib ketgan oyoqni ko'rib,Polvonning rahmi keldi.(J.Sharipov.Xorazm)

"Rangi o'chmoq" - rangi oqarib, bo'zarib ketmoq.Misol:Haqorat qildi-dedi Iskaandarov anchadan keyin tilga kirib. .Nega meni haqorat qilding iflos.9O'tkir Hoshimov.Qalbinga quloq sol)

“Ozmoq” - eti qochib ,ozg’in tortmoq, ozg’inlanmoq, oriqlanmoq.Misol:Bu orada u ozib shundog’am so’lg’in yuzlaribattar za’faron bo’lib ketdi.(Said Ahmad.Ufq)

“Ozg’inlamoq” – oriqlamoq,ozmoq.Misol:Burung’i to’laligi ketib,ozg’inlangan va lekin bu ozg’inlik uning husniga kamchilik bermay , bil’aks yuqorilatgan.(Abdulla Qodiriy.O’tkan kunlar)

“Etini yo’qotmoq” – Et oldirmoq .Ozmoq. Misol:Onajonisining ancha etini oldirganini ko’rgan o’g’li Hamidulla ham tunlari navbatchilik qilardi.(M.Qo’shoqov.Katta hirmon jilg’asi)

XULOSA

Jismoniy jarayon fe’llari tirik organizmlarning ,inson va hayvon organizmining jismoniy holatini ifodalaydi. Bu fe’llar jonli mavjudodlarning tanasida , ularning muayyan a’zolarida sodir bo’lgan jismoniy holatni ifoda etadi.

Jonli mavjudod organizmida sodir bo’ladigan fiziologik o’zgarishlar orqli namoyon bo’ladigan fe’llarni jismoniy jarayon fe’llari deb ayta olamiz.

REFERENCES

1. A.Hojiyev. O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati.Toshkent-1974
2. O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildlik. Toshkent.
3. R.Rasulov . O’zbek tili nazariy grammatikasi muammolari.Toshkent - 2019
4. 4.Ibragimova N.Fe’l va uning ma’noviy guruhlarini o’rganish.Kusr ishi.Navoiy-2015